

**VALYUTA QIMMATLIKLARINI QONUNGA XILOF RAVISHDA
OLISH YOKI O'TKAZISH JINOYATINING KRIMINOLIGIK
JIHATLARI**

Haydarov Jaloliddin Hamza o'g'li

Toshkent davlat yuridik universitetining 3-bosqich doktoranti

E-mail: haydarovjaloliddin9@gmail.com

Annotatsiya: ushbu maqolada valyuta qimmatliklarini qonunga xilof ravishda olish yoki o'tkazish jinoyati kriminologiyasi tahlil qilinadi. Natijada jinoyatchi shaxsi, uni bu turdagi jinoyat sodir qilishga undovchi omillar muhokama qilinadi. Valyutaviy jinoyatlarda jinoyatning umumiy kriminologiyasi, jinoyat sodir etishga undovchi motiv muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: valyuta qimmatliklari, jinoyat, predmet, jinoyatning subyektiv tomoni, motiv.

**УГОЛОВНО-ПРАВОВЫЕ АСПЕКТЫ ПРЕСТУПЛЕНИЯ,
СВЯЗАННОГО С НЕЗАКОННЫМ ПРИОБРЕТЕНИЕМ ИЛИ
ПЕРЕВОДОМ ВАЛЮТНЫХ ЦЕННОСТЕЙ**

Хайдаров Джалолиддин Хамза угли

Докторант 3-го курса Ташкентского государственного юридического университета

Электронная почта: haydarovjaloliddin9@gmail.com

Аннотация: в статье анализируется криминология преступления незаконного получения или перевода валютных ценностей. В результате обсуждаются личность преступника и факторы, побудившие его совершить данный вид преступления. Рассматриваются общая криминология валютных преступлений и мотивы совершения преступления.

Ключевые слова: валютные ценности, преступление, субъект, субъективная сторона преступления, мотив.

**CRIMINOLOGY ASPECTS OF THE CRIME OF ILLEGAL
ACQUISITION OR TRANSFER OF CURRENCY VALUABLES**

Haydarov Jaloliddin Hamza ugli

3rd year doctoral student of Tashkent State University of Law
E-mail: haydarovjaloliddin9@gmail.com

Abstract: *this article analyzes the criminology of the crime of illegal acquisition or transfer of currency valuables. As a result, the identity of the criminal, the factors motivating him to commit this type of crime are discussed. The general criminology of the crime in currency crimes, the motive for committing the crime is discussed.*

Keywords: *currency valuables, crime, subject, subjective side of the crime, motive.*

KIRISH

Valyuta qimmatliklarini qonunga xilof ravishda olish yoki o'tkazish jinoyatining kriminologik jihatlarini ochib berish bevosita ushbu turdagi jinoyatlarning oldini olish, jinoyat yuzaga kelishiga imkoniyat yaratuvchi sabab va sharoitlarini aniqlash hamda ijtimoiy holatlarning ilmiy jihatdan baholanishi jinoyatchilik darajasining kamayishiga xizmat qiladi.

Kriminolog olimlar ta'kidlaganidek, jinoyatchilik kelib chiqishini yaqqol tushuntirib beruvchi bosh, asosiy sababi bo'lmaydi, aksincha ular ko'p va xilma-xil bo'lib, bir-biri bilan hamda jinoyatchilik shart-sharoitlari bilan uzviy, chambarchas bog'liq holda mavjud bo'ladi hamda shunga ko'ra jinoyatchilik sabab va shart-sharoitlari majmui haqida gapirish o'rinli bo'ladi. Shu bilan birga jinoyatchilik sabab va shart-sharoitlari ayrim hollarda o'zni bilan almashishi ham mumkin: ayni bir holat bir vaziyatda jinoyatni sodir etishga turtki bo'lishi, boshqa vaziyatda esa, faqatgina sharoit yaratishi mumkin. V.N.Kudryavtsev va V.E.Eminov ta'kidlaganidek, "jinoyatchilik sabablari majmui deganda o'zaro bog'liq, bir-birini taqozo etuvchi hamda umumiy tabiati asosida birlashgan salbiy ijtimoiy hodisalar

tushunilib, ularning zamirida jinoyat sodir etish uchun qulay shart-sharoitlar yuzaga keladi. Ular sirasiga birinchi navbatda iqtisodiyot, siyosat, ijtimoiy munosabatlar, jamiyatning ma'naviy holati, huquqiy tartibga solish sohasidagi kriminogen hodisalar kiradi" [1, 55-b].

Olimlarning qayd etishicha, jinoyatchi shaxsi "jinoyat" va "shaxs" tushunchalari birikmasidan tarkib topgan. Bu birikmadagi jinoyatchi huquqiy, shaxs esa ijtimoiy tushuncha hisoblanadi.

"Jinoyatchi shaxsi" tushunchasi keng ma'nodagi ijtimoiy tushuncha bo'lgan "inson shaxsi" tushunchasi bilan uzviy bog'liq bo'lib, jinoyatchi shaxsi tushunchasi inson shaxsi haqidagi falsafiy ta'limotlarga asoslangan holda o'rganiladi.

Kriminologiya nuqtayi nazaridan, valyutaviy jinoyatlarni sodir etgan shaxslarni o'rganish uchun, dastlab, jinoyatchi shaxsining psixologik tomonlari va jinoyatni sodir qilishga undovchi ichki sabablarni keltirishimiz mumkin.

Valyutaviy jinoyatlarni sodir etgan shaxslar psixikasining umumiy jihatlari sifatida quyidagilarni aytib o'tishimiz mumkin:

1. G'arazli niyatda valyuta qimmatliklarini qonunga xilof ravishda olish yoki o'tkazish jinoyatini sodir qiladi;
2. Qonunlarga nisbatan mensimaslik ruhining shakllanganligi yoki qonunlarga nisbatan qasd mavjudligi [2, 474-b].

Yuqorida qayd etilganlar, valyutaviy jinoyatlarni sodir etgan jinoyatchi shaxsining umumiy psixologik tomondan ko'rinishi hisoblanadi. G'arazli niyatda yoxud qonunlarga nisbatan hurmatsizlik maqsadida valyutaviy jinoyatlar sodir etiladi.

Valyuta jinoyatlari kriminologik nuqtai nazardan o'ziga xos xususiyatlarga ega, shu jumladan motiv, maqsad, amalga oshirish usullari va oqibatlari valyutaviy jinoyatlarning kriminologiyasida muhim ahamiyat kasb etadi [2, 474-b].

Valyutaviy jinoyatlarni sodir etishda motiv, ya'ni bu turdagi jinoyatni sodir qilishga undovchi vosita katta ahamiyat kasb etadi. Valyuta jinoyatlari moliyaviy foyda bilan bog'liq bo'ladi. Jinoyatchilar noqonuniy daromad olishga, soliq to'lashdan qochishga, pul yuvishga, boshqa jinoiy harakatlarni moliyalashtirishga yoki noqonuniy faoliyatdan foyda olishga intilishlari mumkin [3, 43-b].

Valyutaviy jinoyatlarni sodir qilish usullari bilan ham bir-biridan farq qilib turadi. Jumladan, aldash va manipulyatsiya orqali ham valyutaviy jinoyatlar sodir etiladi. Bunga hujjatlarni qalbakilashtirish, buxgalteriya manipulyatsiyasi, soxta kompaniyalar yaratish va noqonuniy moliyaviy operatsiyalarni yashirishning boshqa usullari kiradi, masalan, qalbaki hujjati orqali qimmatli qog'ozlarni o'tkazish yoki olish, soxta kompaniyalar ochib, ularning hisob raqamiga kriptovalyutada pul o'tkazish.

Valyutaviy jinoyatlarni sodir qilish usuli sifatida global va o'zaro chegara aspektlarini olishimiz mumkin, ya'ni bu turdagi valyuta jinoyatlari chegaralarni kesib o'tishi mumkin, chunki zamonaviy moliyaviy tizimlar mamlakatlar o'rtasida pulni tez va oson ko'chirishga imkon beradi. Bu bunday jinoyatlarni aniqlash va ta'qib qilishni qiyinlashtirishi mumkin. Valyuta qimmatligini kriptovalyutada boshqa bir shaxsning hisobiga o'tkazishi, ikkinchi taraf esa bu mablag'ni yuboruvchining hisobiga o'tkazilishi natijasida jinoyatni, jinoyatchini aniqlash murakkablashadi. Natijada latent jinoyatchilik kelib chiqadi.

Xalqaro normalar va kelishuvlar: xalqaro moliyaviy jinoyatchilikka qarshi kurashishga qaratilgan xalqaro kelishuvlar va normalar mavjud. Biroq, bunday

me'yorlarga rioya qilish va samarali qo'llash davlatlarning faol hamkorligini talab qiladi [3, 43-b].

Global va o'zaro faoliyat jihatlarini valyuta jinoyatlarini yanada murakkablashtiradi va ushbu turdagi jinoyatchilikka qarshi samarali kurashish uchun xalqaro strategiyalarni ishlab chiqish va muvofiqlashtirishni talab qiladi.

Texnologik innovatsiyalar valyuta jinoyatlari kriminologiyasida, jinoyatlarning o'zini sodir etishda ham, ularni oldini olish, aniqlash va tergov qilishda ham muhim rol o'ynaydi. Jinoyatchilar o'zlarining usullarini takomillashtirish va himoya choralarini chetlab o'tish uchun zamonaviy texnologiyalardan foydalanadilar, huquqni muhofaza qilish organlari esa valyuta jinoyatlariga qarshi kurashish uchun eng yangi texnologiyalardan foydalanishga harakat qilishadi.

NATIJA

V.N. Kudryavtsev ta'kidlaganidek, "ma'naviy muhit buzilgan jamiyatda jinoyat sodir etmagan bo'lsa-da, uni sodir etishga tayyor bo'lgan ko'pchilik odamlar bo'ladi: ular salbiy qadr-qimmatlarni qo'llab-quvvatlaydi, lekin qulay imkoniyat bo'lmagani sababli uni amalga oshirmaydi" [4, 139-b]. Latent jinoyatlar jinoyat sodir etilgandan boshlab, vakolatli davlat organi tomonidan rasmiy hisobga olinganiga qadar bo'lgan davr latent jinoyatchilik deb hisobalanadi. Rasmiy hisobga olinmagan jinoyatni latent jinoyatdan farqlash lozim. Rasmiy hisobga olinmagan jinoyatda muayyan davlat organlari tomonidan aniqlanagn bo'lsada, hisobga olinmaydi. Latent jinoyatchilikda esa hisobga olish darajasiga ham borilmaydi. Sodir etilgan qilmishning rasmiy hisobga olinmasligiga, ya'ni latent bo'lib qolishiga quyidagilar sabab bo'ladi:

1. Jabrlanuvchining huquqiy ongi va madaniyati pastligi natijasida o'ziga nisbatan sodir etilgan qilmishni jinoyat deb hisoblamasligi;
2. Mas'ul shaxsning sodir etilgan qilmishni ijtimoiy xavfli emas deb baholashi natijasida qilmish rasmiy hisobga olinmasligi;
3. Sodir etilgan qilmishning rasmiy davlat organlari tomonidan aniqlanma- ganligi;
4. Sodir etilgan qilmish jinoyat ekanligini bilsada, vakolatli davlat organlari-ga xabar berilmasligi;
5. Jabrlarnuvchi o'izga nisbatan sodir etilgan qilmish jinoyat ekanligini bilsada, turli sabablar bilan vakolatli davlat organlariga xabar bermasligi;
6. Vakolatli shaxs tomonidan sodir etilgan qilmish qasddan muayyan manfaat efaziga jinoyat sfatida qayd etilmasligi.

Yuqoridagilarga asoslanib, sodir etilgan jinoyatlarning latent bo'lib qolishini quyidagi guruhlariga ajratishimiz lozim:

- obyektiv tomondan rasmiy hisobga olinmagan jinoyatlar;
- subyektiv tomondan latent bo'lib qolgan jinoyatlar.

Obyektiv tomondan rasmiy hisobga olinmagan jinoyatlarga jabrlanuvchining huquqiy ongi va madaniyati pastligi natijasida o'ziga nisbatan sodir etilgan qilmishni jinoyat deb hisoblamasligi, mas'ul shaxsning sodir etilgan qilmishni ijtimoiy xavfli emas deb baholashi natijasida qilmish rasmiy hisobga olinmasligi, sodir etilgan qilmishning rasmiy davlat organlari tomonidan aniqlanmaganligi, sodir etilgan qilmish jinoyat ekanligini bilsada, vakolatli davlat organlariga xabar berilmasligi kirsas, subyektiv tomondan jabrlarnuvchi o'ziga

nisbatan sodir etilgan qilmish jinoyat ekanligini bilsa-da, turli sabablar bilan vakolatli davlat organlariga xabar bermasligi huquqbuzarlikning latent bo‘lib qolishiga imkoniyat yaratdi.

MUHOKAMA

Biz tahlil qilayotganimiz valyuta qimmatliklarini qonunga xilof ravishda olish yoki o‘tkazish sodir etilgan qilmish jinoyat ekanligini bilsada, vakolatli davlat organlariga xabar berilmaganligi sababli ham latent jinoyat hisoblanadi. Ushbu qilmish haqida vakolatli davlat organlariga xabar berilmasligiga, bizningcha, quyidagilar sabab bo‘ladi:

1. Valyuta almashtirish qora bozorda byurokratiya kamroq, kun-u tun ishlashi sababli ham o‘zining jozibadorligini yo‘qotmaydi;
2. Tijorat banklari tomonidan valyuta almashtirish ish kunlari taklif qininganligi oqibatida doimo chet el valyutasini almashtirish imkonsiz;
3. Tijorat banklari shubhali deb topgan chet el valyutasini qo‘shimcha to‘lov evaziga almashtirib berishi;
4. Yirtilgan yoki shikastlangan chet el valyutasi qo‘shimcha to‘lov evaziga almashtirilishi.

Yuqoridagilar sababli ham valyuta qimmatliklarini qonunga xilof ravishda olish yoki o‘tkazish latent jinoyatligicha qolmoqda.

Ushbu holatda Turkiya va boshqa Yevropa davlatlari tajribasini o‘rganishimiz maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Jumaladan, Turkiyada va boshqa ko‘plab xorijiy mamlakatlarda (masalan, AQSH, Yevropa davlatlari, BAA va boshqalar) xususiy kompaniyalar ham valyuta ayirboshlash bilan shug‘ullanishi mumkin. Turkiyada bu shaxobchalar “Döviz Bürosu” yoki “Exchange Office” deb ataladi. Ular albatta litsenziya olishadi va Markaziy Bank yoki moliya nazorat

organlari tomonidan tartibga solinadi, lekin ular to'liq mustaqil biznes subyekti sifatida ishlaydi. Ba'zilar hatto banklarga qaraganda yaxshi kurslar taklif qiladi.

Soliq qonunchiligidagi bo'shliqlardan foydalanish - jinoyatchilar noqonuniy ravishda olingan pulni yashirish uchun soliqlari past va maxfiy bank tizimlari bo'lgan davlatlardan boshpana sifatida foydalanishlari mumkin. Transmilliy jinoiy tashkilotlarni moliyalashtirish orqali sodir etiladi, ya'ni valyuta jinoyatlari narkokartellar, terroristik guruhlar va kontrabanda tarmoqlari kabi transmilliy jinoiy tashkilotlarni moliyalashtirish bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

XULOSA

Umuman olganda, valyuta jinoyati moliyaviy barqarorlik, qonuniylik va jamoat xavfsizligiga jiddiy tahdid soladi. Bunday jinoyatlarga qarshi kurashish huquqni muhofaza qilish organlari, moliya institutlari va xalqaro tashkilotlar o'rtasida samarali hamkorlikni talab qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Кудрявцев В.В., Эминов В.Е. Причины преступности в России. Криминологический анализ. – М., 2006. – С.55.
2. Кримнология: Дарслик/ З.С. Зарипов, Ю.С.Пулатов, Г.А. Аванесов ва бошқ.; проф З.С. Зарипов тахрири остида. – Т., Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2006. – 474 б
3. Петросян О.Ш. Уголовно-правовые и криминологические основы обеспечения финансовой безопасности государства : автореф дис. ... д-ра юрид. наук : 12.00.08 / О.Ш. Петросян. — М., 2011. — 43 с.
4. Кудрявцев В.Н. Преступность и нравы переходного общества. – М., 2002. – С. 139.